

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA MARKAZIY OSIYODA VUJUDGA KELGAN IJTIMOIY-FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Qosnazarova P.Q

Nukus davlat pedagogika instituti 09.00.04 ijtimoiy falsafa 2- bosqich tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10835545>

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda jadidlik harakatining vujudga kelishi va bu davrda nafaqat jadidlar harakati balki boshqa g'oyaviy ta'limalarning ham shakllanishi shuningdek, Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining o'ziga xos xususiyati, Turkistonda jadidlarning taraqqiyparvar vakillari tomonidan nashr etilgan gazeta va jurnallar so'z etilgan.

Tayanch so'zlar: jadidlar harakati, usuli jaded, jadid maktablari, Oktyabr to'ntarishi, revolyutsiya, Ovrupa texnikasi, tanqid bayrog'i.

A CHARACTERISTIC FEATURE OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-PHILOSOPHICAL THINKING THAT EMERGED IN CENTRAL ASIA IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Abstract. The article describes the emergence of the Jadidism movement in Central Asia at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, and the formation of not only the Jadidism movement, but also other ideological doctrines, as well as the foundation of Jadidism, the foundation of Jadidism, the establishment of Jadid schools, which appeared in Turkestan in the second half of the 19th century. Newspapers and magazines published by the progressive representatives of modernism in Turkestan are mentioned as a characteristic feature of the development of socio-philosophical thinking.

Key words: jadid movement, jaded method, jadid schools, October coup, revolution, European technique, flag of criticism.

ХАРАКТЕРНАЯ ОСОБЕННОСТЬ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ, СЛОЖИВШЕЙСЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА.

Аннотация. В статье описывается возникновение движения джадидизма в Центральной Азии в конце XIX - начале XX века, а также формирование не только движения джадидизма, но и других идеологических доктрин, а также основы джадидизма, основание джадидизма, создание джадидских школ, появившихся в Туркестане во второй половине XIX века. Газеты и журналы, издаваемые прогрессивными представителями модернизма в Туркестане, упоминаются как характерная черта развития общественно-философской мышления.

Ключевые слова: джадидское движение, измученный метод, джадидские школы, октябрьский переворот, революция, европейская техника, флаг критики.

"XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo'lib, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar,

bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo’lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo’nalishga ega bo’lgan ma’rifiy ta’limotlar va nazariyalar mavjud edi”.

Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati balki boshqa g’oyaviy ta’limotlar ham shakllandi. Kishilarning dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an’analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgandi. Bu davrda O’rta asr musulmon mutafakkirlarining asarlarini qayta nashr etish ishlari boshlandi. Kalom falsafasi, shariat axloqiga oid klassik adabiyotlar arab-fors tilidan turkiy tillarga tarjima qilinib nashr etildi. Masjid va madrasalarda Bedilxonlik, diniy ulamolar tomonidan qadimchilik harakatlari, sherxonliklar avj oldi. O’rta Osiyoda ma’rifatparvarlik harakati kishilarning ilm-fan taraqqiyotiga, umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo’lgan intilishining natijasi edi.

Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g’oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Bu davr haqida shunday deyilgan: “Tarixdan shu narsa ma’lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o’taydi. Bu kungi mag’lubiyat ertangi g’alabaning amalga oshuvida ozmi-ko’pmi rol o’ynaydi.

Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin”.

Jadidlik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan, XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o’zining cho’qqisiga ko’tarilgan. Jadidlik 1917 yilgi bol’sheviklar to’ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o’rnatilgunga qadar o’z mavqe va yo’nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba’zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa, ba’zisida harakat deb aytildi. Jadidlik oqim emas, harakat deb ta’kidlaydi B.Qosimov. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidlikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi.

Bu xarakter va yo’nalishni qator olimlar e’tirof etdi. Bugungi kunda jadidlarni olib borgan ishlari keng jamoatchilik o’rtasida turli xil bahslarning vujudga kelishiga sabab bo’lmoqda. Aslida jadidlar harakati faqat Turkistonda vujudga kelmadи.

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80 yillarda Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo’yida yoyilgan shu nomdagagi taraqqiyatparvarlik harakatining bevosita ta’siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralining “Tarjimon” gazetasi (1883) va u asos solgan “usuli jaded” (ikkinchi nomi “usuli savtiya”) maktabi (1884) muhim rol o’ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy “Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G’azit o’qig’uvchilarni mullalar “jadidchi” nom bilan atar edi”, degan fikrni keltiradi.

Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi edi.

Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi.

Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo’ylgan bosh masala bo’ldi. 1900-1925 yillar “jadidchilik” tushunchasining paydo bo’lishi o’z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir.

O’zbek falsafasining ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida “XIX asrning so’nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri g’oyaviy-nazariy va mafkuraviy

shakllanishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Turkistonda o'sha paytda turli ma'naviyg'oyaviy va mafkuraviy oqimlar – qadimchilar, jadidchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'naliishga ega bo'lgan "Chig'atoy gurungi" kabi ancha yetuk yig'inlar, ular ilgari surgan ma'rifiy ta'limotlar, nazariyalar mavjud edi". Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati, balki boshqa harakatlar ham shakllangan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan ilg'or ma'rifatparvarlar davlat mustaqilligini yo'qotilishiga asosiy sabab, O'rta Osiyo jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqligi ekanini juda yaxshi tushunib yetgan. Ular turli ijtimoiy qatlamlarning orasidan chiqqan va eng asosiysi zakovatli bo'lib, ilg'or ziyolilarning birinchi avlodi bo'ldi. Ana shu negizdan keyinchalik jadidlar yetishib chiqib ularning g'oyalarini rivojlantirdi va ma'rifatdan siyosatga qarab yo'l oldi.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo'yish singari maqsadlar ilgari surildi.

Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-harajatlarga olib keluvchi an'anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar boshlab bergen bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat rivojlantirdi.

Aslida jadidlik rasman XIX asrning oxirida o'z amaliy faoliyatini boshlagan bo'lsada, ularning g'oyalari shu asrning boshidayoq (o'n to'qqizinchasi asrning boshida) o'z ta'sirini namoyon qilayotgan edi. "Turkistonda ilk bor Ovrupa texnikasini o'rganish kerakligi masalasini Qo'qon xoni Sayid Muhammad Hakimxon (Olimxonning ukasi) Rossiya, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlarga sayohat qilib qaytgach, 1843 yilda birinchi bo'lib o'rtaga qo'ygan". Tashqi olam bilan tanishish Turkistonliklarning orasida falsafiy mushohadasi taraqqiy qilayotgan yoshlarni tarbiyalay boshladi.

Bundan ko'rindaniki, tashqi olam bilan tanishish, o'zga millat va davlatlarning tarixi, madaniyati, Turkiston yoshlarining tafakkurini o'zgartirgan ilk sabablardan biridir. Tarixdan ma'lumki, hamma vaqt globallashuv jarayoni mavjud bo'lgan, faqat o'zini sekinlik bilan namoyon etgan. Mana shunday jarayonlarning natijasi o'laroq jadidlik ta'limoti o'zini turli yo'llar bilan namoyon qila boshladi. Turkistonda jadidlik g'oyalari va harakatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy zamini XIX asrning oxirgi choragiga kelib to'liq yetildi.

Rus hukumati o'lkada xalqni asta-sekin ruslashtirishga qaratilgan siyosat olib bordi. 1870 yilda Rossiya xalq maorifi vazirligi maorifning maqsadi pirovardida barcha mahalliy aholini ruslashtirishdan iborat bo'lishi haqida qaror qabul qilgan. Shunga o'xshash fikrni N.O. Ostroumov ham aytgan, u: "Rus hukumati mahalliy aholini rus xalqi bilan aralashtirishga harakat qilishi kerak. Shu yo'naliishda mahalliy aholining ma'orifini ma'lum darajada rivojlantirish lozim", degan edi.

Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi o'lka iqtisodiyotini yuksaltirishda xonlik tuzumiga nisbatan birmuncha qulay zamin yaratdi. Mahalliy aholining turmush tarzini o'zgartirish maqsadida bank, vokzal, bosmaxona, zavod kabi yangiliklar kirib kela boshladi. Temir yo'llar qurildi, yangi iqtisodiy aloqalar paydo bo'ldi, litografiyalar vujudga keldi.

Turkistonda jadidlarning taraqqiyat parvar vakillari tomonidan “Tarbiyati atfol”, “Umid”, “Nashri maorif”, “Barakat”, “G’ayrat”, “Taraqqiyat parvar” kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy, ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyatlar gazeta va jurnallar chop etib xalqning ma’naviy ongini oshirishga va mafkuraviy salohiyatini ko’tarishga intildi. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Xurshid”, “Sadoyi Turkiston”, Samarqandda “Samarqand”, “Oyna”, “Hurriyat”, “Shu’lai Inqilob”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Bolalar yo’ldoshi”, “Tayoq majmuasi”, davriy “Sharq”, “Yosh kuch”, “Zarafshon”, Buxoroda “Turon”, “Buxoroi Sharif”, Qo’qonda “Sadoyi Farg’ona” kabi o’nlab gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi.

Bundan ko’rinib turibdiki, o’z davrining ijtimoiy-falsafiy tafakkuri milliy ozodlik xarakteriga ega bo’lgan. Shunday vaziyatda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy harakatlardan biri-jadidlik vatanni mustaqillikka olib chiqish va milliy o’zlikni anglash tadbirlaridan biri edi.

Ma’lumki, milliy o’zlikni anglash muayyan millatning ijtimoiy-tarixiy, ma’naviy-madaniy hayotini, qadriyatlarini, shuningdek, tabiatini bilishdir. Jadidlik mana shunday maqsadlarni ko’zlab shakllandi va rivojlanib bordi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha ko’rinishdagi ta’lim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan. Dastlab xususiy jadid maktablarini ochib yoshlarga ta’lim bera boshlagan bo’lsa, keyinchalik jadid maktablari shakllanishi keng quloch yozib bordi. Mintaqaning turli hududlarida o’ziga xos tarzda bunday maktablar ochila boshladи. Shu o’rinda jadid maktablarining faoliyati haqida bo’lgan quyidagi fikrga e’tibor bersak, “Biz turkistonliklar ham 15 yil bo’ladirki, bu dunyoda o’zgalardek taraqqiy va toliy etmak orzusi bilan yangi maktablar ocha boshladik. Yolg’iz erkak bolalarimizni tarbiya etarg’a kirishdik, ammo qizlarimizning tarbiyasiga hozirgacha hech bir ahamiyat bermadik”.

1910 yili bu “usuli jaded”, ya’ni jadid maktablari yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirolmadı, aksincha, yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bundan “ko’rinib turibdiki, jadidlik keng ijtimoiy masalalar va ma’rifatparvarlik g’oyalalarini ilgari surish maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo’nalish bo’lgan”. Ammo jadidlik ta’limotiga munosabat faqatgina mustaqillik yillarda o’z mavqeini tiklab bordi.

Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma’naviy ongini oshirish, o’z vazifasini o’tay olmay qolgan eskicha ta’lim tizimiga yangicha innovatsion g’oyalarni singdirish edi. Bundan tashqari ular ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy armiyani joriy etish, diniy va dunyoviy, axloqiy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik kontseptsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat kontseptsiyasini o’rnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining o’ziga xos xususiyati shundaki, A.Donish, Furqat, Muqimiy singari mutafakkirlar, Ibrohim Mo’mnov ta’kidlaganidek, adolatning va inson aqlining tantanasiga qarshi tanqid bayrog’ini ko’tarib chiqdi. Bu bayroqni keyinchalik Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza va Cho’lpon kabilar yangi bosqichga ko’tardi.

“XX asrning avvalida jahon miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi voqealar, 1905 yilgi rus revolyusiyasi, Turkiston xalqlarining ongida demokratik tushunchalarining shakllanishi va rivojlanishiga katta turtki bo’ldi. Bunday siyosiy va iqtisodiy o’zgarishlar ijtimoiy tafakkurning taraqqiyotiga ta’sir etmay qolmadi. Yashirin bildirilgan demokratik talablar, ma’rifatparvarlik va vatanparvarlik g’oyalari tobora oshkora bayon etiladigan va ayrim kishilarning hayot tarzi va maqsadlariga aylangan edi. Ana shu davrda shakllangan jadidlar ikki tomonlama tanqid ostida bo’lgan bo’lsa, keyinchalik Oktyabr to’ntarishidan so’ng jadidlar “qizil zambaraklar”dan o’qqa tutildi”, demak ilg’or fikrli jadidlar o’z davrining qurbaniga aylandi.

Turkiston jadidlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qarab o’z ta’rifini berishgan. Masalan, jadidlarning faoliyati haqida Fayzulla Xo’jayev birinchilardan bo’lib harakatni ikki yo’nalishda bo’lganini ko’rsatib bergen:

“Shunday qilib, sentyabr revolyutsiyasi boshlanguncha Oktyabr va uning oqibatlari tufayli vujudga kelgan jadidlar tashkilotlarining tabaqalanishi uzil-kesil rasmiylashdi, bu harakat bir-biridan butunlay boshqa bo’lgan ikki qismga bo’lindi: Uning birinchi qismi Buxoro Kommunistik partiyasiga kirib, o’z taqdirini Oktyabr revolyutsiyasi va jahon kommunistik harakatining taqdiri bilan, jahon sotsial revolyutsiyasi uchun kurash bilan qo’shdi va birlashtirdi. Jadidlarning Oktyabrgacha bo’lgan qismi esa fevralgachagi pozitsiyalarda qolib o’zining millatchilik ideologiyasini tark etmadi”.

Turkistonda o’z faoliyatini olib borgan jadidlar hududiy qatlamiga ko’ra ham farqlangan. Masalan, Turkiston jadidlari, Buxoro jadidlari va Xiva jadidlariga ajratib tahlil qilsak, bularning asosiy maqsadlari ozodlik pozitsiyasiga yo’g’rilgan bo’lsada, ichki tuzilishida ayrim farqlarni ham ko’rish mumkin. “Turkiston jadidlari ham Buxoro jadidlari singari tabaqalanish yo’lidan bordi.

Turkiston jadidlarining katta qismi revolyutsiyani tushunmadni va uning ilgarigi milliy burjua ideologiyasida qolaverdi”. Bundan ko’rinib turibdiki, jadidlarning faoliyati revolyutsiyadan oldingi va revolyutsiyadan keyingi bosqichlarga ajralgan. Masalan, Farg’ona vodiysidagi milliy harakatlar, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, Toshkentdagи ziyolilarning faoliyatlaridagi o’zarо birlik va o’ziga xoslik holatlarini ham ko’rishimiz mumkin. Samarqandda vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakati ijtimoiy rivojlanishi natijasida jadidchilikning siyosiy bosqichiga ko’tarildi. O’z davrining ko’zga ko’ringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidlik milliy o’z-o’zini anglashning o’sishiga va milliy-ozodlik mafkurasing shakllanishi va taraqqiyotiga juda katta xizmat qildi.

Fikrimizning xulosasida Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo’lgan barcha sohalarda innovatsion g’oyalarni joriy qilish edi.

Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o’zgartirishni, ularning ma’naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jididlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash g’oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g’oyalari bilan yo’g’rilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko’rishimiz mumkin. Jididlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g’oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

REFERENCES

1. Tag'oeva D.XIX asrning oxiri va XX asr boshida jadidlar dunyoqarashiga ta'sir etgan omillar. Maqolalar. 29.07.2022.
2. Q. Nazarov. O'zbek falsafasi. –T., 2003.
3. Tulak. I. XX asr o'zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.
4. B. Qosimov. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoiylik. –T., Ma'naviyat, 2002.
5. Sh. G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. Samarqand.: SamDU nashr, 2000.
6. E. Tog'ayev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o'rganish. / "Xalq ta'limi", 1993, 1-son.
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999.
8. Hoji Muin. Oila tarbiyasi. «Mehnatkashlar tovushi» gazetasi, 1918 yil 9 iyul.
9. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.
10. F. Xo'jayev. Tanlangan asarlar: uch tomlik. –T.: Fan, 1976. 1-tom.
11. O'zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbatি materiallari. 1998 yil 9 oktyabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.
12. Tajenova G., Bayjanov S., Abishov M. IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING EXPORT OF AGRICULTURAL PRODUCTS: THEORY AND PRACTICE //Novateur Publications. – 2023. – №. 4. – C. 1-77.
13. Esbosynovna T. G., Sarsenbaevich A. M., Saparbaevich K. A. Current Situation of Agricultural Product Export Financing and its Analysis //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 9. – C. 4-11.
14. Esbosynovna T. G., Sarsenbaevich A. M. PROBLEMS WITH FINANCING EXPORT OF AGRICULTURAL PRODUCTS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEBR). – 2022. – T. 10. – №. 6. – C. 5-8.
15. Ismailov K. S. et al. Organizational-Economic Principles of Digitalizing the Processes of Using Meliorative Systems //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 2S. – C. 3088-3091.